

Hamdamova is the daughter of Dilafruz Malikjon

Teacher of Kokan State Pedagogical Institute

STUDY OF PRAGMATIC AND COGNITIVE IN LINGUISTICS

Abstract: Cognitive linguistics is one of the relevant and not yet fully explored areas of linguistics. Also, research in the fields of pragmatic and cognitive linguistics is one of the most urgent issues today. The purpose of this article is to research and conduct small studies about the specific role of pragmatics and cognitive in Linguistics.

Key words: cognitive linguistics, concept, pragmatics.

Hamdamova Dilafruz Malikjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA PRAGMATIK VA KOGNITIVLIKNING O'RGANILISHI

Annotatsiya: Tilshunoslik sohasining dolzarb va hali to'liq o'rganib chiqilmagan sohalaridan biri bu kognitiv tilshunoslikdir. Shuningdek, pragmatik va kognitiv tilshunoslik sohalari tadqiqoti bugungi kunning eng dolzarb masalalaridandir. Ushbu maqolaning maqsadi, Tilshunoslikda pragmatik va kognitivlikni o'ziga xos o'rni haqida izlanish va kichik taqdidiqotlar olib borishdir.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, pragmatika.

Tilshunoslik sohasi jamiyatning eng kerakli bo'g'ini bo'lib, til rivojlangani sari jamiyatda ham rivojlanish o'sish bo'laveradi. Tilshunoslik sohasi juda qadim tarxga ega bo'lib uni o'rganish, dastlab qadimgi Hindistonda boshlangan. Tilshunoslikning ko'plab ichki sohalari mavjud bo'lib, ushbu maqolada pragmatika va kognitiv tilshunoslik haqida alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Kognitiv tilshunoslik atamasi lingvistika sohasiga kirib kelganiga ko'p bo'lmadi. Shuning uchun ham u bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri desak mubolg'a bo'lmaydi. Ta'kidlash joizki, til va

ong o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, muammolar, aloqalar, dunyoni konseptuallashtirish va turkumlashtirishda tilning ahamiyati va rolini, kognitiv jarayonlarda esa inson tajribasiga asoslangan holda umumlashtirish uchun, insonning individual kognitiv ya'ni tushunish va anglash qobiiyatlari bilan bog'liqligini til va ularning o'zaro bir biriga ta'siri va uning shakllarini o'rganadigan yangicha tilshunoslikdir.

Kognitiv tilshunoslik tushuncha va tilshunoslikni chambarchas bog'lab o'rgangani bois ham murakkabdir. Chunki tushuncha har bir individda turlicha bo'ladi va u o'sgan muhitga asoslanadi.

Kognitiv tilshunoslik rasman alohida soha sifatida 1989-yildan buyon o'rganila boshlandi. Ushbu yilda dastlab Germaniyaning Disburg shtatida kognitiv tilshunoslik doirasida konferensiya tashkillandi. [1.1] Ushbu simpozium ishtirokchilari Xalqaro kognitiv tilshunoslik assotsiatsiyasini tuzdilar va shu kundan boshlab kognitiv tilshunoslikka bo'lgan qiziqish va izlanishlar soni ortadi.

Kognitiv tilshunoslikda biz til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishning yangi bosqichini ko'ramiz, bu muammo asosan rus nazariy tilshunosligiga xosdir.

Bunday tadqiqotlarni neyrofiziologlar, shifokorlar, psixologlar boshlashgan (P. Brok, K. Vernik, I. M. Sechenov, V. M. Bekhterov, I. P. Pavlov, va boshqalar.)

Neyrolingvistika neyrofiziologiya asosida vujudga kelgan (L. S. Vygotskiy, A. R. Luriya). Til faoliyati inson miyasida sodir bo'lishi, til faoliyatining har xil turlari (tilni o'zlashtirish, tinglash, gapirish, o'qish, yozish va boshqalar) miyaning turli qismlari bilan bog'liq.

Kognitiv tilshunoslikning o'ziga xosligi uni har bir millat vakili o'z mentalitetidan kelib chiqib tushunishida ham deyishimiz mumkin. Chunki ingliz tilidagi "table" konsepti ingliz madaniyatida stol tushunchasini bersa, o'zbek tiliga bu so'zni ikki xil tushunchada anglashimiz mumkin, birinchisi, "table –

xontaxta”, ikkinchisi “table – stol” tushunchalaridir. Biroq bu farqlarning o’ziga xos umumiyliги ham mavjud bo’lib, nazarda tutilgan tushunchalarning har ikkisi ham taomlanish uchun jihoz, vazifasi bir xil hisoblanadi, shuningdek ular faqatgina tashqi ko’rinishidan bir biridan biroz farq qiladi. Ushbu farq esa, albatta madaniyatni, milliylikning o’ziga xosligini namoyon qiladi.

Pragmatika esa tilshunoslikning keyingi tarmoqlaridan biri bo’lib, u semiotika hamda tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o’rganuvchi sohasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, unda muayyan belgilar tizimini o’zlashtirilib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o’rganuvchi fan tarmog’i deyish ham mumkin. Pragmatika g’oyasini asosan Amerikalik olim Ch. Pirs tomonidan munozaraga kiritilgan, shuningdek, yana bir Amerikalik olim Ch. Morris ushbu g’oyani rivojlantirgan va “Pragmatika” terminini semiotika bo’limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o’zida qamrab oluvchi va vaziyatdan kelib chiqib, ma’no anglatuvchi xususiyatga ega bo’lib, unda aniq shakl va tashqi ko’rinish bo’lmaydi va uning doirasiga so’zlovchi subyekt, adresat, ularning aloqa-aralashuvdagi o’zaro munosabatlari, aloqa-aralashuv vaziyati bilan bog’liq ko’plab masalalar kiradi.

Pragmatikaning asosiy maqsadi tinglovchida, o’quvchiga estetik go’zallik va estetik madaniyatni shakllantirishdir. Agar asl ma’noni tinglovchi yoki o’quvchiga pragmatic ta’sir etmasa u berilgan matnning asl mohiyatini tushuna olmaydi.

So’zlovchi biror nutq yaratar ekan, u o’zining bu faoliyati bilan qabul qiluvchiga (tinglovchi) qandaydir axborotni etkazishni, kechmishlarini bayon etishni, atrofimizda kechayotgan yangiliklarni etkazishni nazarda tutadi. Bu orqali so’zlovchi retseptorga ma’lum ta’sir ham o’tkazadi. Retseptorga nutq orqali ko’rsatiladigan ta’sir pragmatik xususiyatlar orqali amalga oshiriladi. Asliyatdagi pragmatika yordamida nutqdagi axborot retseptorning oliy nerv

sistemasiga etkaziladi va bu erda tegishli sezgilar orqali qabul qilinib ta'sirlanish yuzaga keladi.

Shuningdek, tarjima jarayonida ham pragmatik belgilarning o'rni beqiyosdir. Tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga ko'proq jalb qilib kelayotgan tilning pragmatik jihatlari tarjimondan chuqur lingvistik bilimdan tashqari yana ko'pgina boshqa fanlar, madaniyatlar ma'lumotlaridan ham xabardor bo'lishni talab qiladi [4.492]. Tarjimada pragmatik vositalardan o'rinli foydalanish esa aslyatda ifodalangan zaruriy ma'noni to'la-to'kis etkazib berishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, tarjimaning pragmatik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lib, ularning tahlilini, tarjimada berilishini, asosli misollar bilan yoritilgan bo'lib mavzu bo'yicha talabalar uchun qo'shimcha yoki asosiy qo'llanma sifatida o'zlarining mustaqil ishlarida, referatlarida foydalanish yoki ma'ruza matnlariga maxsus mavzu sifatida kiritish mumkin [5.1076], [5.583].

Oxford Companion to Philosophy (1995) pragmatikani quyidagicha ta'riflaydi: Malumot, haqiqat yoki grammatikaga emas, balki foydalanuvchilarga va tildan foydalanish kontekstiga e'tibor qaratadigan tilni o'rganish" Pragmatika tilshunoslik sohasi bo'lganligi sababli, bu atamaning to'g'ridan-to'g'ri sinonimi yo'q. Pragmatikaning turli jihatlari mavjud, masalan, nazarda tutilgan ma'no va nutq aktlari. Bu jihatlar umuman pragmatika sohasini tushunishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kognitiv_tilshunoslik
2. Pragmatika tushunchasi va uning tarjimadagi talqinini o'rganish Dildora. Kaxarovna Eshtayeva eshtayeva86@bk.ru Jizzax politexnika instituti . "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 January 2022 / Volume 3 Issue 1
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti: darslik-majmua. T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.

4. Ахмедова С. Р. и др. Инновацион технологияларни таълим жараёнларига татбиқ этиш йўллари //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 492- 496.
5. Axmedova, S. R. (2021). Chet tillarni o'rganish va undagi metodlarning ahamiyati. Science and Education, 2(11), 1076-1080.
6. Axmedova, S. R. (2021). Ilova elementlarining strukturaviy tahlilini o'rganish. Science and Education, 2(12), 583-587.
7. Sotvoldiyev , I., & Rajarova , M. (2023). EASY METHODS OF READING AND READING STRATEGIES. International Conference On Higher Education Teaching, 1(3), 133–139. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/de/article/view/704>
8. Malika, R. (2021). EFFECTIVE WAYS OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING ISSN: 2249-7137 Vol. 11.
9. Rajarova, M. (2021). BADIY DISKURSDA KOGNITIV METAFORALARNING ISHLATILISHI. *Scienceweb academic papers collection*.
10. Azizova Moxinur Muzaffarjon kizi. (2023). LANGUAGE AND CULTURE. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 12(04), 29–31*. Retrieved from <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1708>
11. Azizova Moxinur Muzaffarjon kizi. (2022). “TOAST” CONCEPT IN DIFFERENT LANGUAGE SYSTEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1472–1477*. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3283>
12. Mansurovna, M. A. D. (2022). The Book Of" Erewhon" As A Glory Of A Young Writer. *Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3540-3543*.
13. Мухиддинова, Д. (2022). ВЕЛИКИЕ УТОПИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ СЭМЬЮЭЛА БАТЛЕРА THE GREAT UTOPIAN VIEWS OF SAMUEL BUTLER SAMUEL BATLERNING BUYUK UTOPIK QARASHLARI. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 270-272*.
14. Mansurovna, M. A. D. (2022). IMAGES OF THE NOVEL " EREWHON". *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 816-819*.